



KOREYADA SHAKLLANGAN «KONGLISH» TILINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kamalova Shirin Izzatovna

SamDChTI Koreys filologiyasi kafedrası o‘qituvchisi

Izzatzoda15@naver.com

+998938315515

KIRISH.

Hozirgi zamon Seul standartidagi koreys tilida ingliz tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar miqdori juda katta. Ular ijtimoiy hayotning turli doiralarida: siyosatda, madaniyat va fanda san'atda va kundalik turmushda keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa ingliz tilidan o‘zlashtirilgan atamalar miqdori kundan-kun ko‘payib bormoqda. Oddiygina misol tariqasida inglizcha kompyuter texnikasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha atamalar: *monitor, noutbuk, skaner, printer, toner, prosessor, internet, e-meyl* singari dunyoning barcha tillari kabi koreys tilida ham boshqacha talaffuzda va boshqacha yozuvda o‘zlashtirilganini ta’kidlash lozim. Ingliz tilidan o‘zlashtirilayotgan so‘zlarga Internetning ta’siri ham salmoq jihatidan katta bo‘lmoqda. Bunda birinchidan og‘zaki va yozma nutqdagi chegaralarning buzilib ketishi, inglizcha so‘zlarni qo‘llashganlarida nafaqat ingliz tili, balki koreys tili adabiy til normalariga, yozma nutq qoidalariga rioya qilish qoidalariga rioya qilmaslik holatlari ko‘zga tashlanmoqda. Bu, ayniqsa, elektron pochta mashinlarida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Ikkinchidan Internet nafaqat ingliz so‘zlarining boshqa tillarga kirib borishiga ko‘prik vazifasini o‘taydi, balki xalqaro aloqalarning rivojlanishiga ham munosib hissa qo‘shadi.[1,68]

Koreyada ingliz va boshqa tillardan o‘g‘irilgan so‘zlarning koreys tili elementlari bilan aralashib qo‘llanilishi natijasida ijtimoiy hayotga va til sistemasiga kirib ketgan aralashma so‘zlar konglish atamasi bilan yuritiladi. Konglish – bu bir necha tillarning mutasiyaga kirishuvi natijasida hosil bo‘lgan aralashma til vositalari hisoblanib, bu har qanday tilda hosil bo‘ladigan lisoniy jarayondir (masalan, Xitoydagi ruscha xitoycha til aralashma pidjin deya ataladi). Bugungi kun koreys tilida konglish uning leksik tarkibining ajralmas qismiga aylangan so‘zlarga aylandi.

Konglish tushunchasi asosan ikki hodisani o‘z ichiga oladi:

- 1) koreys - ingliz tillaridagi so‘zlarning grammatik fonetik xatolar bilan o‘zlashtirilgan qatlami;
- 2) koreys tiliga ingliz tilidan kirib kelgan so‘zlarning koreys tili grammatikasiga moslashtirib o‘zgartirilgan formasi.

Ko‘plab tadqiqotlarda konglish tarkibiga kiruvchi so‘zlar yapon tilida ham uchrashi ta’kidlanadi. Shu sababli bunday so‘zlar dastlab yapon fonetik sistemasiga yaqinlashtirilib vujudga keltirilgan, keyinchalik manba til - ingliz tiliga yaqinlashtirilib talaffuz qilina boshlagan. Masalan, *와이셔츠* = “shirt; dress, shirt”, ingliz tilidan “white shirt”, yapon tilida *waishatsu* *와이셔츠* – ko‘ylak; *아파트* = “apartment”, yap. *apāto* *아파트* – kvartira.[2,25]

Konglish quyidagicha tarmoqlanadi:

- 1) To‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashtirilgan so‘z va undov so‘z qorishmasi. Bunda o‘zlashtirma so‘z ham undalma ham asliyatdagi ma’noni anglatadi.

eyys variantidagi konglish	Original tildagi variant
오마이갓 [omaikat]	Oh, my God (O, moy Bog)
인터넷 [intxonet]	Internet (Internet)



2) Yasama tushuncha (yasama o‘zlashtirilgan so‘z) – yangi o‘zlashtirilgan so‘z ta’sirida o‘zining bosh ma’nosini yo‘qotgan, original tilda mavjud bo‘lmagan, yangi vujudga kelgan so‘z:

Koreys varianti	Original tildagi variant
백 넘버 [bek nombo] (back + number)	Jersey number (nomer na spine sportsmena)
샌드위치 데이 [sendivichxi dei] (sandwich day)	Ekvivalent mavjud emas (ikki dam olish kuni oralig‘idagi ish kuni)

3) Qisqartirilgan o‘zlashtirma so‘z, ya’ni talaffuz qulayligi natijasida tashqi ta’sirlar natijasida qisqartirilib yasalgan o‘zlashtirma so‘zlar: 오티[otxi] (*OrienTation*)

4) *Gibrid leksika* – koreys (sino-koreyscha) va ingliz tilidan aralashtirib yasalgan so‘zlar Vinyl + 봉투=비닐봉투 [binil bon'txu] – plastikoviy paket, 물레 + camera = 물레카메라 [mollexxamera] – yashirin kamera

5) *Kalka usuli*. Inglizcha tushunchaning koreys tiliga so‘zma-so‘z tarjimasini orqali yasalgan so‘zlar: «CD를 굽다» – iborasi inglizcha “to burn CD” iborasining – “jech kompakt-diskni yondirmoq” ma’nosida so‘zma - so‘z ishlatilishidir.

6) *Fonetik o‘zgarishlarga uchragan so‘zlar* – fonetik sistemasiga moslashtirilib o‘zlashtirilgan inglizcha so‘zlar:

Version 버전[bochjon] ‘versiya’, visa 비자[bichja] ‘viza’...

7) *Konglish tili shakllanishida televideniening ta’siri*.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab vujudga kelgan koreys televideniesida dastur nomlaridayoq ko‘plab inglizcha o‘zlashtirma so‘zlardan foydalanilganligini ko‘ramiz. Masalan: TV 그랜드쇼 (TV grand show) – TVda katta shou, '국악 버라이어티 (국악 variety)' – 'xalq ohanglari varetesi va h.

Yuqorida ko‘rib chiqqan konglish so‘zlar koreys tilini chet tili sifatida o‘rganuvchi talabalar uchun til o‘rganishda muammolar keltirishi mumkin. Shu sababdan, o‘zlashma so‘zlarni o‘rganish til o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Дмитриева В. Н. О проблемах развития литературного корейского языка.// Филологические науки МГИМО. Сб. науч. трудов №10 (25). -М.: МГИМО(У) МИД России, 2002. С. 33-45
2. Кан Ден Сик. Об особенностях лексического состава современного корейского языка. Киев. 2002. С. 34 - 42.
3. Мазур Ю.Н. Грамматика корейского языка (Морфология. Словообразование). Теоретический курс. - М.: Международный центр корееведения МГУ- ИД «Муравей-Гайд», 2001. 330с.
4. Ким Мун Ук, А.Исмоилов ва бошқалар. Корейсча-ўзбекча луғат. ТошДШИ, -Т., 2006.
5. 김석주, 이승녕 국어사전. 서울.: 동아출판사. 1986.
6. Shuxratovna, B. S. (2024). OYDIN SOBIROVA IJODIDA AYOLLAR OBRAZI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(1), 55-58.
7. Bazarova, S. S. (2022). LI XE JO ASARLARIDA GENDER TENGLIK MUNOSABATINING ILGARI SURILISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 180-188.
8. Shirin, K., & Ruzikulovna, N. M. (2023). COMPARATIVE TEACHING METHODS OF" ADJECTIVE DEGREES" IN THE KOREAN LANGUAGE CLASSES WITH UZBEK LANGUAGE. *International*



Journal Of Literature And Languages, 3(03), 34-38.

9. Kamalova, S., & Nazarova, M. (2022). KOREYS TILIDA KO'MAKCHI FE'LLAR TASNIFI VA XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 284-291.
 - ¹ Aslanova, H. (2020). The concept of features of «Beauty» in the creative heritage of Gadoi. *JOURNAL of CRITICAL REVIEWS* (ISSN-2394-5125. Vol 7. ISSUE 15.2020. SCOPUS Q4, 6 H index), 2672-2676.
 - ¹ Abdurakhimovna, A. H. (2018). ACQUIRING PROFICIENCY IN CREATING SYMBOLS AND LITERARY ART IN GADOI'S POETRY. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych.*, 274.
 - ¹ Abdurakhimovna, K. S., & Dilchiroy, A. (2021). Ancient Proverbs. *European Scholar Journal*, 2(4), 95-99.
 - ¹ Асланова, Х. А. (2014). ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРВЫХ ТЮРКСКИХ ДИВАНОВ И ХУДОЖЕСТВЕННАЯ КОМПОЗИЦИЯ ДИВАНА ГАДОИ. *The Way of Science*, 33.
 - ¹ Aslanova, H. A. UDK: 891.709 IJODIY MUTANOSIBLIK VA GADOIY IJODI. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 22.
15. Aslanova, H. A. (2022). INDIVIDUAL EXPRESSION OF THE OBJECT OF THE TRADITIONAL IMAGE IN THE LYRICS BY GADOY. *Вестник магистратуры*, (11-5 (134)), 138-140.